

ABDULQOHIR JURJONIY VA MUSTAFA G'ALAYNIY ASARLARIDA HARFLARNING NAZARIY VA FUNKSIONAL TALQINI: QIYOSIY TAHLIL

ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ И ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЧАСТИЦ В ТРУДАХ АБД АЛЬ-КАХИРА АЛЬ-ДЖУРДЖАНИ И МУСТАФЫ АЛЬ- ГАЛАЙНИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

A COMPARATIVE STUDY OF THE THEORETICAL AND FUNCTIONAL INTERPRETATION OF PARTICLES IN THE WORKS OF MUSTAFA AL-GHALĀYINĪ AND ABD AL-QĀHIR AL-JURJĀNĪ

TALIPOV Nodir Batirovich

ORIENTAL UNIVERSITY

Senior Lecturer of Languages-I Department

ntalipov@gmail.com

DOI: 10.47980/IAU/2026/1/4

Annotatsiya: Maqolada arab nahv ilmining muhim kategoriyalaridan biri bo'lgan "harf" (حرف) tushunchasining nazariy asoslari, grammatik funksiyalari hamda metodik talqinlari klassik va zamonaviy ilmiy yondashuvlar doirasida qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot obyekti sifatida Abdulqohir Jurjoniyni "الجمال في النحو" asari hamda Mustafa G'alayniyni "جامع الدروس العربية" kitobi tanlanib, ushbu manbalar arab grammatik tafakkurining turli tarixiy bosqichlarini aks ettiruvchi asosiy ilmiy dalil sifatida o'rganilgan. Jurjoniyni asari klassik nahv nazariyasining konseptual poydevorini ifodalasa, G'alayniyni asari zamonaviy ta'lim ehtiyojlariga moslashtirilgan tizimli grammatik modelni namoyon etadi.

Maqolada harf kategoriyasining "omil" (عامل) nazariyasidagi o'rni alohida tahlil qilinib, uning i'rob tizimini shakllantirishdagi boshqaruvchi funksiyasi grammatik misollar asosida asoslab berilgan. Xususan, ismlarning qaratqich kelishigida, fe'llarning mansub holatda va ismlarning tushum kelishigida kelishini talab qiluvchi harflar hamda fe'llarning majzum shaklda qo'llanishini ta'minlovchi grammatik vositalarning gap strukturasi shakllanishidagi roli, sintaktik boshqaruv tizimidagi funksional o'rni va semantik munosabatlarni belgilashdagi ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, harflar nafaqat yordamchi grammatik birlik sifatida, balki gap ichidagi strukturaviy bog'lanishlarni tartibga soluvchi asosiy yordamchi sintaktik boshqaruv vositasi sifatida faoliyat yuritadi.

Shuningdek, Jurjoniyni nazariy-analitik metodologiyasi bilan G'alayniyni didaktik va amaliy yo'naltirilgan yondashuvi qiyoslanib, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlangan. Ushbu qiyosiy tahlil asosida zamonaviy arab tili ta'limida harf kategoriyasini o'qitish jarayonini takomillashtirish bo'yicha metodik xulosalar ishlab chiqilgan. Natijada maqola arab grammatik merosini zamonaviy lingvodidaktik talablarga mos ravishda integratsiya qilish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: harf kategoriyasi, arab nahvi, عامل nazariyasi, i'rob tizimi, sintaktik funksiya, semantik munosabatlar, Abdulqohir Jurjoniyni, Mustafa G'alayniyni, qiyosiy grammatik tahlil.

Аннотация: В статье представлен сравнительный анализ теоретических основ, грамматических функций и методических интерпретаций категории «харф» (حرف), одной из ключевых категорий арабской грамматики, в рамках классических и современных научных подходов. В качестве объекта исследования выбраны труд Абдулькахира аль-Джурджани «Аль-Джумаль фи ан-нахв» (الجمال في النحو) и книга Мустафы аль-Галайни «Джами' ад-дурус аль-арабийя» (جامع الدروس العربية). Указанные источники рассматриваются как важные научные свидетельства, отражающие различные этапы развития арабской грамматической мысли. Труд аль-Джурджани выражает концептуальные основы классической теории арабской грамматики, тогда как работа аль-Галайни представляет системную грамматическую модель, адаптированную к современным образовательным потребностям.

Особое внимание в статье уделяется анализу роли категории харф в теории «амиль» (لماع) и её функции в формировании системы и'раба. На основе грамматических примеров рассматриваются частицы, которые требуют употребления существительных в родительном падеже, глаголов в форме мансуб, существительных в винительном падеже, а также средства, обеспечивающие употребление глаголов в форме маджзум. Анализируется их роль в построении структуры предложения, их значение в системе синтаксического управления и участие в формировании семантических отношений между словами. Результаты исследования показывают, что частицы выполняют не только вспомогательную грамматическую функцию, но и выступают важным средством синтаксической организации предложения.

Кроме того, в работе сопоставляются теоретико-аналитический подход аль-Джурджани и дидактически ориентированная методика аль-Галайни, выявляются их сходства и различия. На основе проведённого анализа сформулированы методические рекомендации по совершенствованию преподавания категории харф в современном обучении арабскому языку. В целом статья показывает возможности использования классического наследия арабской грамматики в современных лингводидактических практиках.

Ключевые слова: категория харф, арабская грамматика (нахв), теория ‘амиль, система и‘раб, синтаксическая функция, семантические отношения, Абдулькахир аль-Джурджани, Мустафа аль-Галаини, сравнительный грамматический анализ.

Abstract: This article presents a comparative analysis of the theoretical foundations, grammatical functions, and methodological interpretations of the concept of particles (*ḥarf*), which constitute one of the core categories in Arabic grammar. The research is based on two authoritative sources: *Al-Jumal fī an-Naḥw* by Abd al-Qāhir al-Jurjānī and *Jāmi‘ ad-Durūs al-‘Arabiyya* by Mustafā al-Ghalāyīnī. These works represent different historical stages of Arabic grammatical thought and serve as primary academic references for examining the development of the particle category. While al-Jurjānī’s work reflects the conceptual framework of classical grammatical theory, al-Ghalāyīnī’s model demonstrates a systematic approach adapted to modern educational requirements.

The study focuses on the role of particles within the theory of *‘āmil* (governing elements) and analyzes their controlling function in the formation of the *i‘rāb* system using concrete grammatical evidence. In particular, the study examines the role of particles that require nouns to appear in the genitive case, verbs to occur in the subjunctive (*mansūb*) form, and nouns to be used in the accusative case, as well as the grammatical elements that bring verbs into the conditional (*jazm*) form, focusing on their role in sentence structure formation, their functional position within the system of syntactic governance, and their significance in determining semantic relations. The findings indicate that particles function not merely as auxiliary grammatical elements but as fundamental mechanisms that regulate structural coherence and syntactic organization within Arabic sentences.

Furthermore, the article compares al-Jurjānī’s analytical and theory-oriented methodology with al-Ghalāyīnī’s didactic and practice-based approach, identifying their common principles and methodological differences. Based on this comparative analysis, pedagogical conclusions are formulated to improve the teaching of particles in contemporary Arabic language education. As a result, the study provides a scientific foundation for integrating classical grammatical heritage with modern linguistic and educational standards.

Keywords: Particles (*ḥarf*), Arabic grammar (*naḥw*), theory of *‘āmil*, *i‘rāb* system, syntactic function, semantic relations, Abd al-Qāhir al-Jurjānī, Mustafā al-Ghalāyīnī, comparative grammatical analysis.

KIRISH

Arab tilshunosligida grammatik birliklarning shakllanishi, ularning gap tarkibidagi sintaktik vazifalari hamda semantik munosabatlari qadimdan ilmiy tadqiqot obyektiga aylangan. Arab nahv ilmi VIII asrdan boshlab Basra va Kufa maktablari doirasida

shakllanib, Sibavayhi, al-Farro, al-Axfash kabi olimlar tomonidan tizimlashtirilgan. Ushbu ilmiy an‘ana doirasida so‘z turkumlari uch asosiy guruhga — ism (اسم), fe‘l (فعل) va harf (حرف) ga ajratilgan bo‘lib, harf kategoriyasi grammatik tizimda alohida muhim o‘rin egallaydi. Chunki harflar mustaqil leksik ma’noga ega bo‘lmagan holda gap tarkibida sintaktik munosabatlarni shakllantiruvchi, i‘rob tizimini boshqaruvchi hamda semantik aloqalarni yuzaga chiqaruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Klassik nahv nazariyasida harflar “amil” (عامل) tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq holda talqin qilinadi. Amil nazariyasiga ko‘ra, gap tarkibidagi grammatik o‘zgarishlar, xususan, so‘z oxiridagi i‘rob belgilarining shakllanishi muayyan omillar ta’siri natijasidir. Ushbu omillar orasida harflar muhim sintaktik vosita sifatida qaraladi. Xususan, shart va inkor munosabatlarini ifodalovchi grammatik vositalar (أدوات الشرط وأدوات النفي), qaratqich kelishigini talab qiluvchi predloglar (حروف الجر), fe‘lning mansub va majzum shakllarini belgilovchi funksional birliklar (حروف النصب) arab gap strukturasi shakllanishida muhim rol o‘ynovchi asosiy sintaktik mexanizmlar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli harf kategoriyasi faqat formal grammatika doirasida emas, balki semantik va pragmatik jihatdan ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

XI asrda yashab ijod qilgan Abdulqohir Jurjoniy arab tilshunosligi tarixida grammatik nazariya va balog‘at ilmini birlashtirgan yirik olimlardan biri hisoblanadi. Uning “الجمال في النحو” (*al-Jumal fī an-naḥw*) asari nahv ilmini tizimli, ixcham va mantiqiy tartibda bayon qilgan fundamental manbalardan biri bo‘lib, unda omil nazariyasi asosida grammatik birliklar, jumladan harflarning sintaktik roli izchil tarzda yoritilgan. Ushbu asar asrlar davomida madrasalarda darslik sifatida qo‘llanilgan va ko‘plab sharhlar yozilishiga sabab bo‘lgan.

XX asr boshlarida esa arab tili ta’limi metodikasida yangi bosqich yuzaga keldi. Bu davrda grammatikani faqat nazariy qoidalar majmui sifatida emas, balki amaliy nutq faoliyati bilan bog‘liq holda o‘qitish zarurati paydo bo‘ldi. Shu jarayonda Mustafa G‘alayniyning “جامع الدروس العربية” (*Jāmi‘ ad-durūs al-‘arabiyya*) asari alohida ahamiyat kasb etdi. Ushbu darslikda arab grammatikasi qoidalari, jumladan harflar tizimi misollar, mashqlar va izchil metodik yondashuv asosida bayon qilingan bo‘lib, u hozirgi kunda ham arab dunyosida va xorijiy oliy ta’lim muassasalarida keng qo‘llanib kelinmoqda.

Tadqiqotda klassik grammatik nazariya bilan zamonaviy pedagogik yondashuv o‘rtasidagi uzviy

bo'yicha ilmiy tadqiqotlar materiallaridan foydalanildi. Bu manbalar orqali harf tushunchasining tarixiy shakllanishi, nazariy asoslari va terminologik aniqligi tekshirildi.

TAHLIL

Arab grammatik an'analarida harf tushunchasi.
Arab grammatik an'anasida soʻz turkumlari tasnifi nahv ilmining eng qadimgi va barqaror nazariy asoslaridan biri hisoblanadi. Klassik grammatik maktab vakillari — xususan Basra maktabi olimlari — soʻzlarni uch asosiy turkumga: ism (اسم), feʼl (فعل) va harf (حرف) ga ajratganlar. Ushbu tasnif arab grammatik tizimining strukturasi belgilovchi asosiy konseptual model sifatida qabul qilingan.

Sibavayhi (vaf. 180/796) tomonidan yozilgan “الكتاب” (*al-Kitāb*) asari arab nahv ilmining eng qadimgi va eng nufuzli manbalaridan biri bo‘lib, unda so‘z turkumlari aniq nazariy mezonlar asosida tavsiflangan. Sibavayhi harf tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: «والحرف جاء لمعنى ليس باسم ولا فعل» (Sibawayh, 2004:12)

Mazkur ta'rifga ko'ra, harf — ism ham, fe'l ham bo'lmagan, balki boshqa birliklar bilan bog'lanib grammatik ma'no hosil qiluvchi vosita hisoblanadi. Bu ta'rif klassik nahv nazariyasida harfning asosiy belgisi sifatida uning mustaqil leksik ma'noga ega emasligi, balki sintaktik munosabatlarni yuzaga chiqarishi ta'kidlanganini ko'rsatadi.

Keyingi nahvshunoslar ushbu konsepsiyani rivojlantirib, harf kategoriyasini yanada aniqlashtirdilar. Jumladan, Ibn Hishom Ansoriy (vaf. 761/1360) “مغني” (*Mug‘niy al-labīb*) asarida harf tushunchasiga quyidagi mashhur ta’rifni beradi:

«الحرف ما دلّ على معنى في غيره» (Ibn Hishām, 2009:23)
Bu taʼrifga koʻra, harf mustaqil holda maʼno bermaydi, balki boshqa soʻz bilan birgalikda kelganda semantik va grammatik vazifani bajaradi. Ushbu yondashuv arab tilida harflarning asosiy funksiyasi — sintaktik munosabatlarni bogʻlash, sababiyat, shartlilik, inkor, yoʻnalish, joy, vaqt va boshqa grammatik munosabatlarni ifodalashdan iborat ekanini ilmiy asosda koʻrsatadi.

Arab grammatik an'anasida harflar nafaqat lug'aviy belgi sifatida, balki omil nazariyasi doirasida sintaktik ta'sir kuchiga ega birlik sifatida ham qaraladi. Omil tushunchasi grammatik o'zgarishlarning sababchisi sifatida talqin qilinadi. Bu nuqtai nazardan harflar so'z oxiridagi i'rob belgilarining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Zamaxshariy “al-Mufasssal” asarida harf kategoriyasini klassik nahv tizimining muhim unsurlaridan biri sifatida talqin qilib, uning mustaqil leksik ma’noga ega emasligini, biroq gap tarkibida sintaktik va semantik munosabatlarni yuzaga chiqaruvchi faol grammatik omil ekanini ta’kidlaydi. Unga ko’ra, harf boshqa so’z birliklari bilan birikkan holdagina grammatik ma’no hosil qiladi va aynan shu xususiyati orqali i’rob tizimining shakllanishida muhim rol o’ynaydi. Ushbu qarash zamonaviy tadqiqotlarda yangi tahliliy yondashuvlar asosida qayta ko’rib chiqilib, harflarning sintaktik tizimdagi o’rni aniq ilmiy mezonlar bilan izohlangan. Xususan, M. Nasirova Zamaxshariyning harf haqidagi qarashlarini tahlil qilar ekan, harflarni gap ichidagi grammatik sabab–natija munosabatlarini belgilovchi asosiy sintaktik mexanizm sifatida baholaydi (Nasirova, 2024:6). Mazkur yondashuv muallifning avvalgi tadqiqotlarida Abdulqohir Jurjoniyni omil nazariyasi asosida yanada rivojlantirilib, harflarning arab grammatik tizimida grammatik hukm chiqaruvchi faol omil sifatida namoyon bo’lishi asoslab berilgan (Talipov, 2025:57).

Masalan, qaratqich kelishigini talab qiluvchi predloglar (حروف الجر) ismlarning qaratqich kelishigida qo’llanishini ta’minlaydi.

مررت بزيد

Ushbu misolda “ب” predlogi (حرف الجر) ismning qaratqich kelishigida kelishini ta’minlagan bo’lib, mazkur holat klassik nahv nazariyasida harfning amaliy grammatik ta’siri sifatida talqin qilinadi.

Abdulqohir Jurjoniyni “al-Jumal” asarida harf va omil nazariyasi. Abdulqohir Jurjoni (vaf. 471/1078) arab nahv va balog’at ilmining nazariy asoslarini tizimlashtirgan yirik olimlardan biri hisoblanadi. Uning “الجملة في النحو” (*al-Jumal fi an-nahw*) asari nahv ilmini ixcham, mantiqiy va tizimli shaklda bayon qilgan muhim ilmiy manba bo’lib, unda grammatik hodisalar omil nazariyasi asosida talqin qilinadi. Jurjoni bu asarni talabalarga nahv qoidalarini yodlash va tushunishni osonlashtirish maqsadida qisqa formulalar va aniq definitsiyalar asosida tuzgan.

Jurjoni grammatik tizimning markaziy tushunchasi sifatida omilni belgilaydi va uni quyidagicha ta’riflaydi: «العامل ما أوجب كون آخر الكلمة على وجه مخصوص من الإعراب» (Al-Jurjānī, 2008:45)

Bu yerda “omil” i’rob tizimida so’z oxirida yuzaga keladigan bosh kelishigi (raf’), tushum kelishigi (nasb), qaratqich kelishigi (jarr) hamda jazm shaklining shakllanishiga sabab bo’luvchi sintaktik-boshqaruv omili sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv klassik nahv an’anasida qabul qilingan sabab–natija munosabatiga

asoslanadi: grammatik shakl o’zgarishi tasodifiy emas, balki muayyan sintaktik omil ta’sirida yuzaga keladi.

Jurjoni “al-Jumal” asarida omillarni ikki asosiy turga ajratadi:

1. **Lafziy omillar (العوامل اللفظية)** — bevosita so’z shaklida ifodalanadigan omillar (harflar, fe’llar, ayrim ismlar);

2. **Ma’naviy omillar (العوامل المعنوية)** — gap tarkibida yashirin tarzda amal qiluvchi sintaktik munosabatlar (masalan, ismiy jumlaning ega va kesimi o’rtasidagi bog’liqlik).

Harf kategoriyasi aynan lafziy omillar guruhiga kiradi. Jurjoniya ko’ra, harflar gap tarkibida mustaqil ma’noga ega bo’lmagan bo’lsa-da, grammatik hukm chiqaruvchi kuchga ega bo’lgan birliklar hisoblanadi. U harflarning bu funksiyasini nahv tizimining muhim mexanizmi sifatida ko’rsatadi.

Masalan, jar harflarining amaliy grammatik ta’siri quyidagi misolda aniq ko’rinadi:

مَرَرْتُ بِزَيْدٍ - **Men Zaydning yonidan o’tdim.**

Bu yerda “ب” harfi “Zayd” so’zining qaratqich kelishigida turishiga sabab bo’lmoqda. Jurjoni ushbu holatni sintaktik sababiyat asosida izohlaydi: harf mavjud bo’lsa — i’rob o’zgaradi, harf olib tashlansa — grammatik holat ham o’zgaradi. Bu esa harflarning formal belgi emas, balki faol grammatik omil ekanini ko’rsatadi.

Shuningdek, Jurjoni “إِنَّ وَأَخَوَاتِهَا” guruhiga kiruvchi harflarning grammatik tizimdagi rolini ham alohida ta’kidlaydi. Ushbu harflar ismiy jumlaning egasini tushum kelishigida, kesimini esa bosh kelishikda turishini talab qiladi:

إِنَّ الْعِلْمَ نُورٌ - **Darhaqiqat, ilm nurdur.**

Ushbu misolda “إِنَّ” harfi gapning sintaktik strukturasi va i’rob tizimini qayta tashkil etmoqda. Jurjoni buni omilning hukm chiqaruvchi xususiyati sifatida baholaydi va ushbu turdagi harflarni “ta’kid va tasdiq ma’nosini kuchaytiruvchi grammatik vosita” deb izohlaydi.

Bundan tashqari, Jurjoni shart harflari (إِذَا) haqida ham batafsil to’xtalib, ularning fe’l shakllariga ko’rsatadigan ta’sirini nazariy jihatdan asoslaydi. Masalan:

إِنْ تَجَهَّزْتَ تَنْجُ - **Agar sen harakat qilsang, muvaffaqiyatga erishasan.**

Bu yerda “إِنْ” shart munosabatini ifodalovchi grammatik vosita bo’lib, ikki fe’lning majzum shaklda qo’llanishini ta’minlaydi. Jurjoni buni shart–natija munosabati orqali yuzaga kelgan sintaktik ta’sir sifatida izohlaydi.

Jurjoniyni “al-Jumal” asaridagi muhim jihatlardan biri shundaki, u grammatik qoidalarni faqat

formal sxema sifatida emas, balki mantiqiy tizim sifatida talqin qiladi. Harf — sabab, i'rob — natija tamoyili asosida tuzilgan ushbu model arab grammatikasining ichki mexanizmini ilmiy asosda tushuntirishga xizmat qiladi.

Shu sababli “al-Jumal” asari keyingi nahvshunoslar, jumladan Ibn Hishom, Zamakhshariy va zamonaviy grammatik mualliflar tomonidan asosiy nazariy tayanch sifatida qabul qilingan. Bu holat Jurjoniyni harf va omil konsepsiyasi arab nahv ilmidagi barqaror ilmiy paradigma sifatida shakllanganini ko'rsatadi.

Mustafa G'alayniyning “Jāmi' ad-durūs al-‘arabiyya” asarida harflar tasnifi va metodik yondashuv. Mustafa G'alayniy (1886–1944) arab tili grammatikasini zamonaviy pedagogik talablar asosida tizimlashtirgan olimlardan biri hisoblanadi. Uning “جامع الدروس العربية” (*Jāmi' ad-durūs al-‘arabiyya*) asari XX asr boshlaridan boshlab arab mamlakatlarida va xorijiy ta'lim muassasalarida asosiy darslik sifatida keng qo'llanib kelinmoqda. Ushbu asar klassik nahv nazariyasini saqlagan holda, grammatik materialni sodda, izchil va amaliy yo'naltirilgan shaklda taqdim etishi bilan ajralib turadi.

G'alayniy harf kategoriyasini faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki nutq jarayonida faol ishlatiladigan grammatik vosita sifatida talqin qiladi. U harflarni funksional xususiyatlariga ko'ra bir necha asosiy guruhlariga ajratadi va har bir guruhni misollar, mashqlar hamda amaliy izohlar bilan mustahkamlaydi.

Muallif avvalo **jar harflari (حروف الجر)** haqida to'xtalib, ularning sintaktik va semantik funksiyalarini aniq belgilaydi. U jar harflarining vazifasini quyidagicha izohlaydi:

حروف الجر تدخل على الأسماء فتجرّها وتفيد معاني متعددة» «كالسببية والمصاحبة والظرفية» (Al-Ghalāyini, 2011:112)

Ushbu iqtibosda muallif jar harflarining ikki asosiy funksiyasini ko'rsatadi: birinchidan, ular ismni qaratqich kelishigida turishini talab qiladi; ikkinchidan, sababiyat, hamroh bo'lish, joy va vaqt kabi semantik munosabatlarni ifodalaydi. Bu yondashuv G'alayniyning grammatikani faqat formal qoidalar majmui sifatida emas, balki ma'no tizimi bilan uzviy bog'liq holda o'rgatishga intilganini ko'rsatadi.

Masalan, u quyidagi misolni keltiradi:

مَنْ ذَهَبَ إِلَى الْمَدْرَسَةِ - Men maktabga bordim.

Bu misolda “إلى” harfi harakat yo'nalishini bildiruvchi semantik munosabatni ifodalab, “maktab” so'zini qaratqich kelishigida turishini talab qilgan. Muallif bunday misollar orqali o'quvchilarda grammatik shakl va ma'no o'rtasidagi bog'liqlikni shakllantirishni maqsad qiladi.

G'alayniy o'z asarida “إِنَّ وَأَخَوَاتِهَا” nomi bilan mashhur bo'lgan, fe'lga o'xshash funksional xususiyatlarga ega grammatik birliklarni (حروف مشبهة بالفعل) alohida guruh sifatida tahlil qiladi. U bu harflarning gap strukturasi va i'rob tizimiga ko'rsatadigan ta'sirini izchil tarzda tushuntiradi:

إِنَّ وَأَخَوَاتِهَا تدخل على المبتدأ والخبر فتصب المبتدأ وترفع» «الخبر» (Al-Ghalāyini, 2011:145)

Yuqoridagi ta'rifda grammatik o'zgarish mexanizmi aniq ifodalanib, natijada ismiy jumlaning egasi tushum kelishigida, kesimi esa bosh kelishigida kelishi belgilab beriladi. Masalan:

إِنَّ الطَّالِبَ مُجْتَهِدٌ - Darhaqiqat, talaba tirishqoqdir.

Ushbu misolda “إِنَّ” harfi gapning sintaktik tuzilishini o'zgartirib, grammatik urg'uni kuchaytiruvchi vosita vazifasini bajaradi. G'alayniy bu kabi misollar orqali talabalarni real nutq muhitida ishlatiladigan grammatik konstruksiyalar bilan tanishtiradi.

Muallif shuningdek **inkor harflari (لا، لم، لن)** haqida ham batafsil to'xtaladi. Ularning zamon va ma'no jihatidan farqlanishini aniq izohlaydi:

لم تغد نفي الماضي مع الجزم، ولن تغيد نفي المستقبل مع» «النصب» (Al-Ghalāyini, 2011:162)

Yuqoridagi holatda “لم” fe'lni majzum shaklga keltirib o'tgan zamon inkorini grammatik jihatdan ifodalaydi. “لن” esa fe'lni mansub shaklda qo'llanishini ta'minlab, klassi zamon inkori bilan bog'liq semantik munosabatni yuzaga chiqaradi. Bu yondashuv talabalar uchun fe'l zamonlari va grammatik shakllar o'rtasidagi bog'liqlikni aniq anglash imkonini beradi.

Shuningdek, G'alayniy **shart harflari (إن، إذا)** ni ham alohida guruh sifatida ko'rib chiqadi va ularning gapda sabab-natija munosabatini yuzaga chiqarishini ta'kidlaydi:

إِنْ تَجْتَهِدْ تَنْجَحْ — Agar sen tirishib o'qisang, muvaffaqiyatga erishasan.

Ushbu misolda shart munosabatini yuzaga keltiruvchi grammatik birlik ikki fe'lni majzum shaklda kelishini talab qilib, shart va natija munosabatining grammatik asosda shakllanishini ta'minlaydi.

Umuman olganda, G'alayniyning metodik yondashuvi klassik nahv nazariyasiga tayangan holda grammatikani amaliy nutq faoliyati bilan bog'lashga qaratilgan. U harf kategoriyasini quruq termin sifatida emas, balki kommunikativ vosita sifatida talqin qiladi. Shu sababli “Jāmi' ad-durūs al-‘arabiyya” asari zamonaviy arab tili o'qitish metodikasida samarali model sifatida e'tirof etiladi.

Qiyosiy tahlil: Abdulqohir Jurjoniy va Mustafa G'alayniy yondashuvlari. Arab grammatik tafakkurida harf kategoriyasining talqini muallifning ilmiy maqsadi, davri va auditoriyasiga bog'liq holda turlicha

shakllangan. Abdulqohir Jurjoniyy va Mustafa Gʻalayniy asarlari bu jihatdan arab nahv ilmining ikki muhim bosqichini ifodalaydi: biri klassik nazariy paradigma, ikkinchisi esa zamonaviy didaktik grammatika modeli sifatida namoyon boʻladi.

Nazariy yondashuv farqlari. Abdulqohir Jurjoniyy grammatik hodisalarni qatʼiy nazariy asosda, xususan omil konsepsiyasi doirasida tahlil qiladi. U harfni mustaqil birlik sifatida emas, balki iʼrob tizimini boshqaruvchi grammatik sabab sifatida talqin etadi. Jurjoniyy omil tushunchasini quyidagicha taʼriflaydi:

«العامل ما أوجب كون آخر الكلمة على وجه مخصوص من الإعراب» — **Omil deb soʻz oxirida maʼlum grammatik shaklning (iʼrobning) yuzaga kelishiga sabab boʻluvchi grammatik omil tushuniladi.** (Al-Jurjānī, 2008:45)

Bu taʼrif grammatik oʻzgarishlarning mantiqiy sababini aniqlashga qaratilgan boʻlib, Jurjoniyyning nazariy yondashuvi strukturaviy va sababiyatga asoslanganini koʻrsatadi. Unga koʻra, harf grammatik tizimda faqat yordamchi element emas, balki iʼrobni shakllantiruvchi asosiy mexanizm hisoblanadi.

Mustafa Gʻalayniy esa grammatikani nazariy model sifatida emas, balki oʻrganish jarayonida samarali oʻzlashtiriladigan tizim sifatida taqdim etadi. U qoidalarni ixcham taʼriflar, koʻplab misollar va mashqlar orqali tushuntiradi. Masalan, u jar harflari haqida shunday yozadi:

«حروف الجر تدخل على الأسماء فتجرّها وتفيد معاني مختلفة» — **Predloglar ismlarga qoʻshilib, ularning qaratqich kelishigida kelishini taʼminlaydi hamda turli semantik munosabatlarni ifodalaydi.** (Al-Ghalāyīnī, 2011:112)

Bu yondashuv Gʻalayniyning asosiy maqsadi — grammatik hodisani nazariy jihatdan chuqur tahlil qilishdan koʻra, oʻquvchi uchun tushunarli va amaliy qoʻllanadigan shaklda bayon qilish ekanini koʻrsatadi.

Shunday qilib, Jurjoniyy grammatik tizimning ichki mexanizmini ochib berishga intilsa, Gʻalayniy ushbu mexanizmni taʼlim jarayoniga mos shaklda soddalashtirib taqdim etadi.

Funksional yondashuv farqlari. Jurjoniyyda harf birinchi navbatda grammatik sabab (عامل) sifatida koʻriladi. U harflarning vazifasini sintaktik taʼsir orqali baholaydi. Masalan, shart harflarining feʼlga koʻrsatadigan taʼsiri haqida u shunday izoh beradi:

«أدوات الشرط تجزم الفعلين لربط الجزاء بالشرط» — **Shart munosabatini ifodalovchi grammatik vositalar ikki feʼlning majzum shaklda qoʻllanishini taʼminlab, natija va shart oʻrtasidagi sintaktik bogʻlanishni yuzaga keltiradi.** (Al-Jurjānī, 2008:78)

Bu taʼrifda harfning vazifasi grammatik bogʻlanish yaratish va feʼl shaklini oʻzgartirish orqali mantiqiy sabab-natija munosabatini mustahkamlash sifatida talqin qilinadi.

Gʻalayniy esa funksional jihatni kommunikativ nuqtai nazardan tushuntiradi. U harflarning nutqdagi semantik rolga koʻproq urgʻu beradi. Masalan, inkor harflari haqida u quyidagicha yozadi:

«لم تغد في الماضي ولن تغيد في المستقبل» — **oʻtgan zamon inkorini, “لن” esa kelasi zamon inkorini ifodalaydi.** (Al-Ghalāyīnī, 2011:162)

Bu yondashuvda harf grammatik sabab sifatida emas, balki nutqda maʼno hosil qiluvchi kommunikativ vosita sifatida izohlanadi. Bu esa Gʻalayniyning amaliy nutq kompetensiyasini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan metodikasini koʻrsatadi.

Demak, Jurjoniyyda harf — sintaktik mexanizmning markaziy boʻgʻini boʻlsa, Gʻalayniyyda u — nutq jarayonida maʼno va muloqotni shakllantiruvchi vosita sifatida namoyon boʻladi.

Metodik yondashuv farqlari. Jurjoniyy asari ilmiy risola shaklida yozilgan boʻlib, nazariy qoidalarni tizimli tarzda bayon etishga qaratilgan. “Al-Jumal” asari tarixan madrasa tizimida yuqori bosqich talabalariga moʻljallangan nazariy qoʻllanma sifatida qoʻllanilgan. U grammatikani chuqur tushunishga yoʻnaltirilgan, biroq mashq va didaktik elementlar bilan boyitilmagan.

Gʻalayniy esa “Jāmiʼ ad-durūs al-ʼarabiyya” asarini toʻliq pedagogik model asosida ishlab chiqqan. U har bir mavzudan soʻng amaliy mashqlar berib, grammatik bilimni mustahkamlashga eʼtibor qaratadi. Muallifning oʻzi bu maqsadni quyidagicha ifodalaydi:

«وضعنا هذا الكتاب لتقريب النحو إلى أذهان الطلاب وتيسير فهمه» — **Ushbu kitobni talabalar ongiga nahv ilmini yaqinlashtirish hamda uni oʻzlashtirish jarayonini yengillashtirish maqsadida tayyorladik.** (Al-Ghalāyīnī, 2011: Muqaddima)

Bu jumla Gʻalayniy metodikasining asosiy prinsipini — grammatikani soddalashtirish va oʻrganishni osonlashtirish gʻoyasini ochiq koʻrsatadi.

Natijada, Jurjoniyy modeli ilmiy-nazariy tayanch vazifasini bajarsa, Gʻalayniy modeli zamonaviy arab tili taʼlimida amaliy samaradorlikni taʼminlovchi metodik vosita sifatida xizmat qiladi.

Qiyosiy xulosalar. Qiyosiy tahlil shuni koʻrsatadiki, Jurjoniyy va Gʻalayniy yondashuvlari qarama-qarshi emas, balki bir-birini toʻldiruvchi ilmiy bosqichlarni ifodalaydi. Jurjoniyy arab grammatik tafakkurining nazariy poydevorini mustahkamlagan boʻlsa, Gʻalayniy ushbu poydevor asosida zamonaviy taʼlim modeli yaratgan.

Bu holat arab tili o'qitish jarayonida klassik nahv merosini zamonaviy metodika bilan uyg'unlashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Zamonaviy ta'limda harf nazariyasining ahamiyati. Bugungi arab tili ta'limida grammatik kompetensiyani shakllantirish jarayoni faqat qoidalarni yodlash bilan cheklanib qolmasligi kerak. Zamonaviy metodik yondashuvlar grammatikani nutq faoliyati bilan integratsiyalashgan holda o'rgatishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, harf nazariyasi arab tilini o'rgatishda markaziy didaktik komponentlardan biri hisoblanadi, chunki harflar gap tuzilishi, ma'no aloqalari va kommunikativ funksiyalarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Abdulqohir Jurjoniyni nazariy modeli zamonaviy til ta'limida grammatik tushunchalarni mantiqiy asosda anglash uchun metodologik poydevor vazifasini bajaradi. Uning omil konsepsiyasi grammatik shakl va sintaktik sababiyat o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi:

«الإعراب أثر ظاهر يدل على المعنى الذي اقتضاه العامل» —

I'rob so'z oxirida yuzaga keladigan tashqi grammatik belgi bo'lib, u omil tomonidan talab qilingan ma'noni ko'rsatib beradi. (Al-Jurjānī, 2009:97)

Bu fikrga ko'ra, i'rob shakli tasodifiy hodisa emas, balki sintaktik sababning natijasidir. Zamonaviy metodikada ushbu yondashuv talabalar ongida grammatik tizimni mantiqiy model sifatida shakllantirish imkonini beradi. Natijada o'quvchi grammatikani mexanik qoida sifatida emas, balki strukturaviy tizim sifatida qabul qiladi.

Mu'rafa G'alayniy esa ushbu nazariy asosni ta'lim jarayoniga moslashtirgan mualliflardan biri hisoblanadi. U grammatik materialni bosqichma-bosqich, misol va mashqlar orqali o'zlashtirishni asosiy metodik tamoyil sifatida belgilaydi. Muallif bu maqsadni aniq ifodalaydi:

«غاية النحو أن يُعين الطالب على صحة التعبير وسلامة الأسلوب» —

Nahv fanining asosiy maqsadi talabaga to'g'ri ifodalash hamda nutq uslubining me'yoriyligini ta'minlashda yordam berishdan iboratdir. (Al-Ghalāyīnī, 2011:5)

Bu jumla grammatik ta'limning yakuniy maqsadi — nutq to'g'riligini va uslubiy aniqlikni shakllantirish ekanini ko'rsatadi. Harflar esa ushbu jarayonda markaziy o'rin tutadi, chunki ular gapdagi semantik bog'lanishlarni belgilaydi.

Zamonaviy arab tili ta'limi bo'yicha olib borilgan metodik tadqiqotlarda ham funksional grammatika modeli ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilgan. Masalan, Mahmud Naqqosh grammatik birliklarni kontekstda o'rgatish zarurligini ta'kidlab shunday yozadi:

تعليم القواعد لا يكون ناجحاً إلا إذا ارتبط بالاستخدام الحقيقي» — **Grammatik qoidalarni o'qitish jarayoni faqatgina u tilning real qo'llanilishi bilan bog'langan taqdirdagina samarali bo'ladi.** (Al-Naqqāsh, 2011:62)

Bu yondashuv G'alayniyning metodik modeliga to'liq mos keladi. Chunki u harflarni faqat nazariy ta'rif bilan cheklamay, real nutq misollari orqali o'rgatadi.

Shu sababli Jurjoniyni nazariy modeli va G'alayniyning amaliy metodikasini uyg'unlashtirish zamonaviy arab tili ta'limida yuqori natijaga erishishning ilmiy asoslangan modeli hisoblanadi.

XULOSA

Bu jarayonda tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Abdulqohir Jurjoni va Mu'rafa G'alayniy asarlarida harf kategoriyasi bir xil grammatik hodisa bo'lsa-da, turli ilmiy maqsad va metodik vazifalarga xizmat qilgan.

Jurjoniyni "al-Jumal" asarida harf tushunchasi nazariy grammatika doirasida, ayniqsa "omil" konsepsiyasi asosida talqin qilingan. U grammatik tizimni mantiqiy sababiyat asosida izohlab, arab nahv ilmiga strukturaviy yondashuvni joriy qilgan. Uning quyidagi ta'rifi ushbu konsepsiyaning markaziy g'oyasini ifodalaydi:

«العامل أصل في بناء الإعراب وفهم العلاقات النحوية» —

Omil i'rob tuzilmasining grammatik asosini tashkil etib, gap tarkibidagi sintaktik munosabatlarni tushunishda muhim nazariy mexanizm vazifasini bajaradi. (Al-Jurjānī, 2008: 51)

Bu yondashuv arab grammatik tafakkurining nazariy poydevorini mustahkamlab, keyingi avlod nahvshunoslari uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qilgan.

Mu'rafa G'alayniy esa ushbu klassik nazariyani zamonaviy ta'lim ehtiyojlariga moslashtirib, uni didaktik tizimga aylantirgan. Uning yondashuvi grammatikani o'rganishda soddalik, tizimlilik va amaliy qo'llanishga yo'naltirilgan bo'lib, bu holat arab tilini chet tili sifatida o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Jurjoniyni nazariy modeli va G'alayniyning metodik modeli o'zaro qarama-qarshi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi ikki ilmiy bosqichni tashkil etadi. Birinchisi grammatik tizimning ilmiy asosini yaratgan bo'lsa, ikkinchisi ushbu asosni ta'lim amaliyotiga samarali integratsiya qilgan.

Ushbu tadqiqot natijalari arab tili grammatikasini o'qitishda klassik ilmiy merosdan ongli va tizimli foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, mazkur yondashuv nazariy bilimlarni amaliy ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYETLAR RЎЙХАТИ

1. الأنباري، كمال الدين. (2007). أسرار العربية في الإعراب. بيروت: دار الكتب العلمية
2. الغلاييني، مصطفى. (2005). جامع الدروس العربية (1–3 أجزاء). بيروت: دار الفكر
3. الجرجاني، عبد القاهر. (2008). الجمل في النحو. بيروت: دار الكتب العلمية
4. الجرجاني، عبد القاهر. (2009). دلائل الإعجاز في علم المعاني. بيروت: دار الكتب العلمية
5. الزمخشري، محمود. (1998). المفصل في صناعة الإعراب. بيروت: دار الفكر
6. ابن هشام الأنصاري. (2004). مغني اللبيب عن كتب الأعاريب. القاهرة: دار الحديث
7. سيبويه. (2004). الكتاب (1–4 أجزاء). القاهرة: الهيئة المصرية العامة للكتاب
8. Ibrohimov, N. (1997). Arab tili grammatikasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
9. Nasirova, M. (2024). Arab tilida tub ko'makchilarning ma'nolari (Zamaxshariyning "al-Mufasssal" asari misolida). Islom nuri, 2, 4–10.
10. Talipov, N. B. (2025). Abdulqohir Jurjoniyning "al-'Awāmil al-mi'a" asarida ta'sir nazariyasi va uning arab sintaksisidagi ahamiyati. Al-Buxoriy ilmiy jurnali, 3, 56–66.
11. Badawi, E., Carter, M., & Gully, A. (2004). Modern written Arabic: A comprehensive grammar. London: Routledge.
12. Haywood, J. A., & Nahmad, H. M. (1993). A new Arabic grammar of the written language. London: Lund Humphries.
13. Holes, C. (2004). Modern Arabic: Structures, functions and varieties. Washington: Georgetown University Press.
14. Ryding, K. C. (2014). A reference grammar of modern standard Arabic (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
15. Versteegh, K. (2014). The Arabic language (2nd ed.). Edinburgh: Edinburgh University Press.

REFERENCES

1. Al-Anbārī, Kamāl al-Dīn. (2007). Asrār al-'Arabiyya fī al-I'rāb. Beirut: Dār al-Kutub al-'Ilmiyya.
2. Al-Ghalāyīnī, Muṣṭafā. (2005). Jāmi' al-Durūs al-'Arabiyya (Vols. 1–3). Beirut: Dār al-Fikr.
3. Al-Jurjānī, 'Abd al-Qāhir. (2008). Al-Jumal fī al-Naḥw. Beirut: Dār al-Kutub al-'Ilmiyya.
4. Al-Jurjānī, 'Abd al-Qāhir. (2009). Dalā'il al-I'jāz fī 'Ilm al-Ma'ānī. Beirut: Dār al-Kutub al-'Ilmiyya.
5. Al-Zamakhsharī, Maḥmūd. (1998). Al-Mufaṣṣsal fī Ṣan'at al-I'rāb. Beirut: Dār al-Fikr.
6. Ibn Hishām al-Anṣārī. (2004). Muḡhnī al-Labīb 'an Kutub al-A'arīb. Cairo: Dār al-Ḥadīth.
7. Sībawayh. (2004). Al-Kitāb (Vols. 1–4). Cairo: Al-Hay'a al-Miṣriyya al-'Āmma li-l-Kitāb.
8. Ibrohimov, N. (1997). Arab tili grammatikasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.